

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel dagi
513-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi v.b



_____ O. Butayev
(ro'yxat raqami VII-20/479,
2026-yil “1” aprel)

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankiga ishga
qabul qilishda nomzodlarni tekshirish Yo'riqnomasi
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel dagi
513-sonli qaroriga
2-ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankiga ishga qabul qilishda
nomzodlarni tekshirish Yo‘riqnomasi**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankiga ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish Yo‘riqnomasi (keyingi o‘rinlarda — Yo‘riqnoma) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (keyingi o‘rinlarda - KQKT) sohasidagi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va yetakchi jahon amaliyotlari, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlari, “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 3252-son, 2020-yil 30-iyun), Markaziy bankning meyoriy hujjatlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi hamda ichki qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Yo‘riqnoma bank tizimida vakant lavozimlarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (KQND) – “Mikrokreditbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish ustidan nazoratni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan bankning maxsus bo‘linmasi;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita

qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

nomzod – bankning bo'sh ish o'rnini talablariga javob beradigan, vakant lavozimga tanlangan jismoniy shaxs;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-bob. Asosiy vazifalar

4. Ushbu Yo'riqnomaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

nomzod tomonidan o'zi, kasbiy faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat munosabatlari to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini va haqqoniyligini tekshirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq ravishda xizmat vazifalarini halol, sifatli, puxta, xolis bajarishga qodir bo'lgan jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirilishini ta'minlash;

bankda xizmat vazifalarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmagan, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan, mehnat faoliyati bank uchun obro'-e'tibor, korrupsiya yoki boshqa xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xavfini minimallashtirish;

manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish;

boshqaruv, moddiy va moliyaviy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga yuqori malakali, halol, vijdonli, qonunga bo'ysunuvchi hamda bank qadriyatlariga sodiq xodimlarni tanlashni ta'minlash;

nomzodning ishchanlik obro'si (reputatsiyasi) va kasbiy etikasini baholash;

nomzodning avvalgi ish joylarida mehnat intizomiga rioya qilganligi hamda xizmat majburiyatlarini bajarish sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish;

lavozimga tayinlash jarayonida shaffoflik, xolislik va teng imkoniyatlar tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash.

5. Nomzodning shaxsiy ma'lumotlari, shu jumladan uning ish haqi miqdori, moliyaviy holati hamda boshqa shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar maxfiy hujjatlar hisoblanadi va ular bilan ishlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Nomzod bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida uning bevosita rahbari yoki bevosita bo'ysunuvchisi lavozimida ishlaydigan xodimlarning yaqin qarindoshlari bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish yoki lavozimga tayinlashga yo'l qo'yilmaydi.

Zarur hollarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo'lsa, masala bankning vakolatli komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tegishli xulosa beriladi.

3-bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yiladigan umumiy talablar va ularning muddatlari

7. Nomzodlarni tekshirish jarayonida ishtirok etayotgan mas'ul xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, KQKT sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, bank Korporativ odob-ahloq kodeksi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa ichki qoidalar talablariga qat'iy rioya etishi shart.

8. Tekshiruv jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

qonuniylik;
xolislik va beg'arazlik;
shaffoflik;
maxfiylik;
shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish;
manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik.

9. Mas'ul xodimlar tekshiruv jarayonida:

nomzodning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan harakatlarga yo'l qo'ymasligi;
tekshiruv natijalarini asossiz ravishda uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi;
o'z vakolatlari doirasidan chiqmasligi shart.

10. Tekshiruv davomida olingan barcha ma'lumotlar xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni saqlash va ulardan foydalanish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

11. Agar tekshiruv jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi aniqlansa, mas'ul xodim bu haqda zudlik bilan o'zining bevosita rahbariga yoki vakolatli bo'linmaga yozma ravishda ma'lum qilishi va mazkur jarayonda ishtirok etishdan chetlashtirilishi lozim.

12. Nomzodni tekshirish ariza va zarur hujjatlar to'liq taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

13. Tekshiruv muddati quyidagi hollarda uzaytirilishi mumkin:

qo'shimcha ma'lumotlar so'rash zarurati tug'ilganda;
nomzod tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda aniqlashtirish zarur bo'lganda;

texnik yoki boshqa obyektiv sabablarga ko'ra tekshiruvni yakunlash imkoni bo'lmaganda.

14. Tekshiruv muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror mas'ul tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan asoslantirilgan xizmat yozuvi bilan rasmiylashtiriladi.

15. Tekshiruv yakunlari bo'yicha xulosa tayyorlanadi hamda belgilangan tartibda vakolatli rahbar yoki komissiyaga taqdim etiladi.

4-bob. Tekshirish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish

16. Nomzodni tekshiruvdan o'tkazish jarayonini amalga oshirayotgan mas'ul xodimlarga tekshiruvni tashkil etish va o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlarning nusxalari;

ishga qabul qilinayotgan nomzod tomonidan belgilangan shaklda to'ldirilgan va imzolangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya nusxasi;

zarur hollarda lavozim xususiyatidan kelib chiqib talab etiladigan boshqa hujjatlar (malaka sertifikatlari, tavsiyanomalar va boshqalar).

17. Taqdim etilgan hujjatlar mas'ul xodimlar tomonidan to'liqligi, haqqoniyligi va belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan o'rganiladi.

18. Ma'lumotnomani olgandan keyin unda to'ldirilmagan bandlar mavjud bo'lsa, mas'ul xodimlar nomzoddan yetishmayotgan ma'lumotlarni talab qilib olishi mumkin.

19. Mas'ul xodimlar nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha tushuntirishlar va qo'shimchalar talab qilib olishga haqli.

20. Nomzod talab qilingan hujjatlar yoki ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, mas'ul xodimlarning ixtiyorida bo'lgan ma'lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so'rov yuborish orqali tekshirilishi mumkin. Bunda, mas'ul xodimlar tekshiruv natijalari haqidagi xulosaga tegishli qaydni kiritadi.

21. Nomzodning O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uni ishga qabul qilishni rad etish uchun asos bo'lmaydi.

5-bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlar haqidagi ma'lumotlarni tekshirish uchun axborot manbalari

22. Ishga qabul qilinayotgan nomzodni tekshirish jarayonida nomzod tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek ochiq manbalar yoki rasmiy so'rovnomalar orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi va qayta ishlanadi.

23. Nomzodni ishga qabul qilishda foydalaniladigan axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Taqdim etilgan ma'lumotlarni tasdiqlash maqsadida rasmiy so'rovlar boshqa ijro etuvchi davlat organlari va tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylariga, ta'lim muassasalariga va boshqa tegishli subyektlarga yuborilishi mumkin.

24. Mas'ul xodimlar nomzodning sudlanganligi, shuningdek firibgarlik, korrupsiya yoki zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarini aniqlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga rasmiy so'rov yuborish huquqiga ega.

25. Nomzod haqidagi ma'lumotlarni tekshirishda quyidagi ochiq ma'lumot manbalaridan foydalanish mumkin:

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – <http://registr.stat.uz>

Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my.soliq.uz/main/?lang=ru>

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali - <https://data.egov.uz>

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali - <https://gov.uz>

O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiya va uy-joy bozori qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi - <http://kadastr.uz/ru/>

Davlat xaridlari elektron tizimi (Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri) - <http://xt-xarid.uz>

Iqtisodiy, ma'muriy, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>

Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlar ma'lumotlar bazasi – <https://mib.uz>

Offshor hududlar ro'yxati - <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>

AQShning maxsus toifalari va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (yoki World bazasini tekshirish) <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

axborot qidiruv tizimlari (masalan, Google, Yandeks va boshqalar) va boshqalar.

Mazkur ro'yxat indikativ xususiyatga ega bo'lib, zaruratga ko'ra unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6-bob. Nomzodlarni tekshirish bo'yicha ko'rsatma

26. Nomzodni tekshirish faqat bank tomonidan nomzodning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga yozma rozilik olinganidan so'ng amalga oshiriladi (mazkur Yo'riqnomaning 3-ilovasi).

27. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

nomzodning sudlanganligi mavjud emasligi, shuningdek uni iqtisodiy, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish holatlari aniqlanmaganligi;

rahbarlik lavozimiga nomzod uchun rahbarlik lavozimlarini egallashga nisbatan taqiq mavjud emasligi;

nomzodning korrupsion, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy faoliyat bilan bog'liqligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

oldingi ish joyidan salbiy teskari bahoning mavjud emasligi;

nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlanmaganligi;
O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida nazarda tutilgan cheklovlar mavjud emasligi;
nomzod bilan bog'liq boshqa xavf ko'rsatkichlari aniqlanmaganligi.
28. Nomzodlarni tekshirish jarayoni qonuniylik, xolislik va maxfiylik tamoyillariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

7-bob. Ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish natijalari

29. Nomzodni tekshirish yakunlari bo'yicha mas'ul xodimlar nomzodni tekshirish to'g'risida hisobot tuzadilar (mazkur Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq). O'tkazilgan tekshirish va uning natijalari haqidagi ma'lumotlar ishga joylashish uchun murojaat qilgan nomzodlarni tekshirishlar reyestriga kiritiladi (mazkur Yo'riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq).

30. Nomzod bo'yicha tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning (1-ilova) 3-bo'limi 3.1, 3.2, 3.3 yoki 3.4-bandlarida ko'rsatilgan savollar yuzasida bir yoki bir nechta xavf ko'rsatkichlari ("Ha" javoblari) aniqlansa, salbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

Agar 3.5 yoki 3.6-bandlardagi savollarning kamida bittasiga bir yoki bir nechta xavf ko'rsatkichlari ("Ha" javoblari) mavjud bo'lsa, tekshiruvni o'tkazuvchi mas'ul xodim korrupsion xavf mavjudligi yoki mavjud emasligi holatini baholaydi.

Agar korrupsion xavf mavjud bo'lsa, tekshirishni o'tkazuvchi mas'ul xodim ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun xodimlar bo'limiga taklif kiritadi yoki bunday xavflar darajasini pasaytirishning iloji bo'lmasa, nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

31. Salbiy xulosa berilgan taqdirda nomzod ishga qabul qilish uchun noloyiq deb topiladi.

32. Agar tekshiruv natijasida korrupsion xavf aniqlangan nomzod ishga qabul qilingan bo'lsa va xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tavsiya etilgan bo'lsa, mazkur chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali bajarilishini nazorat qilish xodimning bevosita rahbariga yuklanadi.

8-bob. Hujjatlarni rasmiylashtirish, ko'rib chiqish va saqlash muddatlari

33. Ishga qabul qilinayotgan nomzodni tekshirish natijalari (jumladan, tekshirish hisoboti va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar) mahfiy hisoblanadi va ular bank xodimlariga hamda nomzodni tekshirishda ishtirok etmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

34. Nomzodlarni ishga qabul qilishda tekshirish reyestridan (2-ilova) faqat mas'ul xodimlar foydalanishi mumkin.

35. O'z xizmat vazifalarini bajarishda bunday ma'lumotlardan foydalanishi kerak bo'lgan boshqa xodimlar KQND direktorining yozma roziligini olishlari kerak.



36. Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda, tekshirish dalolatnomasining asl nusxasi xodimning shaxsiy ishida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda va tartibda saqlanishi kerak.

37. Tekshiruv hisobotining nusxasi, shuningdek hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, ekran skrinshotlari, ko'chirmalar, vakolatli muassasalarga yuborilgan so'rovnomalar hamda ularga javoblar va h.k) xodimlar bo'limida kamida 10 (o'n) yil mobaynida saqlanishi kerak.

38. Bankda ishga joylashmagan nomzodlarni ko'rib chiqish natijalari 3 (uch) yil davomida saqlanadi.

39. Agar nomzod bankda ishlash uchun so'nggi tekshiruv o'tkazilgan sanadan boshlab 2 (ikki) yil davomida da'vogar bo'lsa, qayta tekshiruv o'tkazish talab etilmaydi (manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash bundan mustasno).

Agar so'nggi tekshiruv o'tkazilganiga 2 (ikki) yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, nomzod belgilangan tartibda qayta tekshiruvdan o'tishi kerak.

9-bob. Yakuniy qoidalar

40. Mazkur Yo'riqnoma bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

41. Mazkur Yo'riqnomaniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


42. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Yo'riqnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

43. Mazkur Yo'riqnoma qoidalarini buzganlikda aybdor bo'lgan xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

44. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Yo'riqnomada keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Yo'riqnoma qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

45. Mazkur Yo'riqnoma kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2023-yil 6-iyundagi 71-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBga ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish Yo'riqnomasi" o'z kuchini yo'qotadi.

Shimmi
[Signature]



*“Mikrokreditbank” ATBga ishga qabul qilishda
nomzodlarni tekshirish yo‘riqnomasiga
1-Illova*

Nomzodni tekshirish to‘g‘risidagi hisobot

1.	Asosiy ma’lumotlar	
1.1	Nomzod FISH	
1.2	Tug‘ilgan yili	
1.3	Bo‘sh ish joyi nomlanishi	
1.4	Bo‘linma	
1.5	Aloqa telefonlari	
1.6	El. pochta	
2.	Ish tajribasi	
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlar	
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy baho mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo‘q Sharhlar: Manba(lar):
3.	Tekshiruv natijalari	
3.1	Ushbu Yo‘riqnomaning 11-bandi bilan nazarda tutilgan hujjatlarning to‘liq to‘plami olinganmi? («Yo‘q» javobi faqatgina O‘zR MK 80-moddasiga muvofiq ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)	☐ Ha ☐ Yo‘q Yetishmayotgan hujjatlar: Ularning mavjud emasligi sababi(lari):
3.2	Nomzoddan olingan ma’lumotlar, shu jumladan ma’lumotnomalarning haqqoniyligi alomatlari, shuningdek o‘zi haqidagi muayyan ma’lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligi.	☐ Ha ☐ Yo‘q Sharhlar: Manba(lar):
3.3	Iqtisodiy, shu jumladan korrupsiya, xarakterdagi huquqbuzarliklar uchun tugallanmagan sud muhokamasi va (yoki) nomzodni ma’muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish holatlari mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlarning mavjud emasligi	☐ Ha ☐ Yo‘q (ha bo‘lsa, sabablari ko‘rsatilsin) Sharhlar: Manba(lar):
3.4	Adliya organlari tomonidan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiqning mavjud emasligi	☐ Ha ☐ Yo‘q Sharhlar:



	(rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)	Manba(lar):	
3.5	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi belgilari mavjudligi:	☐ Ha	☐ Yo'q
	1) nomzodning yaqin qarindoshlari bankning amaldagi xodimlari bo'lsa	☐ Ha	☐ Yo'q
		(ijobiy javob bo'lganda, ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlari ko'rsatiladi)	
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
	2) agar nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari boshqaruv yoki qaror qabul qiluvchi lavozimlarni egallab turgan bo'lsa yoki bankning kontragenti bo'lishi mumkin bo'lgan kompaniyalarning boshqaruv organlarining a'zolari bo'lsa	☐ Ha	☐ Yo'q
		(ijobiy javob bo'lganda: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
	3) nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday tashkilotning ochiq muomalada bo'lmagan ulushlari yoki ustav kapitalidagi ulushlariga yoxud Respublika fond birjasida yoki boshqa fond birjasida ochiq muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarning 5 yoki undan ortiq foiziga ega bo'lsa yoki kompaniyalar faoliyatining natijalariga shaxsiy manfaatdorlikka ega bo'lsa (shu jumladan investitsiyalarni amalga oshirish orqali);	☐ Ha	☐ Yo'q
		(ijobiy javob bo'lganda: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
	4) Boshqa alomatlar	☐ Ha	☐ Yo'q
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
3.6	Ishga nomzodning yoki uning yaqin qarindoshlarining korrupsion, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlari to'g'risida ma'lumotlarning mavjud emasligi	☐ Ha	☐ Yo'q
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
3.7	Nomzodga nisbatan boshqa xavf ko'rsatkichlarining mavjud emasligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ko'rsatilgan turmush tarzi rasmiy maoshga to'g'ri kelmasligi va h.k.).	☐ Ha	☐ Yo'q
		Sharhlar):	
		Manba(lar):	
3.8	Boshqa ma'lumotlar (shu jumladan suhbat natijalari)	☐ Ha	☐ Yo'q
		Sharhlar):	

	Manba(lar):		
4	Korrupsion xavfni tahlil qilish (3.5 va 3.6-bandlarga yoki ushbu bandlardan biriga ijobiy javob berilgan taqdirda) va ularni minimallashtirish choralari bo'yicha tavsiyalar		
5	Xulosa		
		Ha/Yo'q	Izohlar
	3.1, 3.2, 3.3 va 3.4-bandlarida ko'rsatilgan xavf indikatorlarining mavjudligi		Belgilangan toifadagi kamida bitta xavf mavjud bo'lsa, xulosa salbiy hisoblanadi
	3.5, 3.6, 3.7 va/yoki 3.8-bandlarida ko'rsatilgan xavf indikatorlarining mavjudligi		Korrupsion xavfi yuqori bo'lgan va ularni kamaytirish choralari ko'rishning iloji bo'lmagan taqdirda, xulosa salbiy hisoblanadi.
YAKUNIY NATIJA		(salbiy xulosa / ijobiy xulosa)	
TAVSIYALAR (aniqlangan xavflar hisobga olingan holda)			

Mansabdor shaxs _____

FISH va imzo: _____

20__y. «__» _____

*“Mikrokreditbank” ATBga ishga qabul qilishda
nomzodlarni tekshirish yo‘riqnomasiga
2-illova*

Bankga ishga joylashtirish uchun nomzodlarni tekshirish reyestri

№	Nomzodning FISH	Bo'sh lavozim nomi	Markaziy apparatdagi mintaqaviy va tuzilmaviy bo'linma nomi	Inspeksiya rahbarining FISH	Nomzodni tekshirish to'g'risidagi hisobotning sanasi va raqami	Tekshirish natijalari (ijobiy/ salbiy / aniklangan xavflar)	Tekshirish natijalarini asoslovchi kiskacha tushuntirishlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
...							

*“Mikrokreditbank” ATBga ishga qabul qilishda
nomzodlarni tekshirish yo‘riqnomasiga
3-Illova*

**Bank tomonidan ishga joylashtirish uchun nomzodning shaxsiy
ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik**

Ushbu hujjat “Mikrokreditbank” ATBga ishga joylashish uchun nomzodning uning shaxsiy ma’lumotlarini bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunlari talablarga muvofiq qayta ishlashga yozma roziligi kasb etadi (keyingi o‘rinlarda tegishincha “Rozilik” va “Nomzod” deb yuritiladi).

Ushbu bilan men, _____

Tugilgan yili va sanasi: _____
Ruyxatga olingan manzil: _____
STIR: _____
Pasport ma’lumotlari: _____
_____ tomonidan berilgan.

Men potensial ish beruvchi – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan “Mikrokreditbank” ATBga (keyingi o‘rinlarda - bank), o‘zimning shaxsiy ma’lumotlarimni (bundan keyin matnda birgalikda yoki aloxida “Shaxsiy ma’lumotlar” deb yuritiladi) takdim etaman/takdim etdim.

**Shaxsiy ma’lumotlar - elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan ma’lum bir shaxsga tegishli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, mehnat munosabatlari bilan bog‘liq holda ish beruvchi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar.*

Shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish** mening ruxsatim bilan amalga oshiriladi va shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida nazarda tutilgan qonuniy manfaatlarimga zid kelmaydi.

***Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash - Shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxsiylashtirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish.*

Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik mening bank bilan tuzilgan mehnat shartnomamning amal qilish muddati davomida amal qiladi va ushbu rozilik imzolanishidan oldin boshlangan bank bilan munosabatlarimga taalluqlidir. Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda mehnat shartnomasi

bekor qilingandan keyin saqlashi shart bo'lgan ayrim toifadagi shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan ushbu rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mazkur ma'lumotlarni saqlash uchun zarur bo'lgan muddat davomida amal qiladi.

Xodimning F.I.SH, lavozimi va imzosi: _____
_____, 20__-yil «__» _____

* _

** _